



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 172 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	162
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	



IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQ VA SOHALARIGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNING JORIY HOLATI TAHLILI

Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: [0009-0007-8404-608X](https://orcid.org/0009-0007-8404-608X)

Email: ismailova.ku@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalarning holati, ularning hajmi, moliyalashtirish manbalari va texnologik tarkibi bo'yicha so'nggi besh yillik dinamikasi tahlil qilingan. Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy o'sish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil sifatida baholangan. Tahlil natijalari asosida investitsion muhitni yaxshilash, samaradorlikni oshirish va resurslarni strategik yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: asosiy kapital, investitsiyalar dinamikasi, infratuzilma, xorijiy sarmoya, texnologik tarkib, iqtisodiy o'sish, moliyalashtirish manbalari.

Abstract: This article analyzes the trends and structure of investments directed toward key sectors of Uzbekistan's economy over the past five years. Special attention is given to investments in fixed capital, including their volumes, financing sources, and technological composition. The study evaluates the role of these investments in ensuring sustainable economic growth, enhancing industrial capacity, developing infrastructure, and attracting foreign direct investment. Based on the analysis, the paper proposes recommendations for improving investment efficiency, optimizing resource allocation, and strengthening institutional support.

Key words: fixed capital, investment dynamics, infrastructure, foreign investment, technological structure, economic growth, financing sources.

Аннотация: В статье рассмотрено текущее состояние и динамика инвестиций в основные сектора экономики Республики Узбекистан за последние пять лет. Особое внимание уделено инвестициям в основной капитал, их объему, источникам финансирования и технологическому составу. Подчеркнута ключевая роль инвестиций в обеспечение экономического роста, развитие инфраструктуры и привлечение иностранных инвестиций. По результатам анализа предложены меры по повышению инвестиционной эффективности и улучшению инвестиционного климата в стране.

Ключевые слова: основной капитал, динамика инвестиций, инфраструктура, иностранные инвестиции, технологическая структура, экономический рост, источники финансирования.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning holati va ularning tahlili mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar qishloq xo'jaligi, sanoat, infratuzilma, turizm va ijtimoiy xizmatlar kabi asosiy sohalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda davlat tomonidan investitsiya muhitini yaxshilash hamda xususiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Investitsiya faoliyatining holatini tahlil qilish uchun, eng avvalo, ichki va tashqi sarmoyalarning hajmi, ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti hamda iqtisodiy samaradorligini ko'rib chiqish muhimdir. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi



va sanoat kabi strategik tarmoqlarga investitsiya kiritish hajmining oshishi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida qulay huquqiy hamda institutsional shart-sharoitlar yaratilgani diqqatga sazovor. Masalan, erkin iqtisodiy zonalar, investitsiyalarni himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar va soliq imtiyozlari xorijiy sarmoyadorlarning mamlakat iqtisodiyotiga qiziqishini oshirmoqda.

Infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirilgan sarmoyalar, xususan, transport va energetika sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohalardagi investitsiya samaradorligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada kengaytirish zarur.

Turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar, xususan, tarixiy va madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish hamda zamonaviy mehmonxona infratuzilmasini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatning xalqaro maydondagi jozibadorligini oshirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va infratuzilmani takomillashtirishning muhim manbai sifatida qaratiladi. Ayrim tadqiqotchilar (Todaro & Smith, 2015) fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Ularga ko'ra, sarmoyalar tarkibini aniqlashda davlat budjeti, xususiy sektor mablag'lari va tashqi manbalarning mutanosibligi muhim ahamiyatga ega. Biroq boshqa mualliflar (Rodrik, 2007) bunga qarshi chiqib, ichki moliyalashtirish ustuvor bo'lishi kerakligini, chunki tashqi qarz orqali amalga oshiriladigan investitsiya siyosatlar uzoq muddatda makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Ba'zi iqtisodiy modellarda moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasini ta'minlash orqali investitsiya samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatiladi. Masalan, Musgrave & Musgrave (1989) davlat xarajatlari asosida moliyalashtirilgan infratuzilma investitsiyalarining ijtimoiy foydali samarasini alohida ta'kidlaydilar. Boshqa tadqiqotlar esa (Calderón & Servén, 2010) xususiy sektor hamda davlat-xususiy sheriklik (PPP) shaklidagi sxemalarni investitsiya loyihalari uchun barqaror moliyalashtirish mexanizmi sifatida ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ayrim mutaxassislar (La Porta et al., 1998) moliya bozorlarining rivojlanmaganligi sababli kapital yetishmovchiligi sharoitida kichik va o'rta biznesning asosiy kapitalga sarmoya kiritish imkoniyatlari cheklanganligini ta'kidlaydilar. Shu bois, moliyalashtirish manbalari nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham tahlil etilishi lozim. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, asosiy kapitalga investitsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan moliyalashtirish manbalarining tuzilishi, barqarorligi va investitsiya muhitining shaffofligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy kapitalga investitsiyalar holati va dinamikasini baholash uchun tahlil usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar 2020–2024-yillar davrini qamrab olgan bo'lib, ular rasmiy statistik manbalar hamda ochiq davlat hisobotlaridan olindi. Investitsiya hajmlari, moliyalashtirish manbalari va texnologik tarkib bo'yicha turli yillar kesimidagi dinamik o'zgarishlar qiyosiy tahlil qilindi. Hisob-kitob jarayonida foizlar, ulushlar va o'sish sur'atlari orqali investitsiya faolligining tendensiyalari aniqlandi. Bundan tashqari, infratuzilma, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha sarmoya taqsimoti tahlil qilinib, xulosalar chiqarishda tarmoqlararo samaradorlikning solishtirma yondashuvidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud quvvatlarni yangilash va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Asosiy kapitalga investitsiya qilish nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, investitsiya jarayonlarining dinamikasi va ularning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi besh yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining deyarli ikki baravarga oshgani bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha olib borilgan ishlar samaradorligini ko'rsatmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar — bu yangi asosiy fondlarni sotib olish va mavjud fondlarni takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini o'z ichiga oladi. Ular mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va o'sish salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish



quvvatlarini kengaytiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologik yangilanish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun ham mustahkam zamin yaratadi.

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini aniq ko'rsatmoqda. Ushbu davr mobaynida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi deyarli ikki baravarga oshdi. Bu o'sish bir necha muhim omillar bilan izohlanadi.

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qonunchilik bazasi takomillashtirildi, xorijiy va ichki sarmoyadorlar uchun huquqiy kafolatlar kuchaytirildi, soliq yukining kamaytirilishi va erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi investitsiyalarning keskin o'sishiga olib keldi.

Har yili qabul qilinadigan davlat investitsiya dasturlari doirasida strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash uchun yirik loyihalarga katta hajmda sarmoya yo'naltirildi. Bunda transport, energetika, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.


Xususan, yo'l-transport infratuzilmasini yangilash, zamonaviy elektr stansiyalarini qurish va suv ta'minoti tizimlarini yaxshilashga qaratilgan investitsiyalar umumiy sarmoyalar hajmining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatidagi ochiqlik va xalqaro hamkorlikning faollashuvi natijasida mamlakatga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ortdi. Yirik xalqaro kompaniyalar mamlakatda o'z loyihalarini amalga oshirishga qiziqish bildirmoqda.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yangi quvvatlarni yaratishga qaratildi. Bu nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sish tendensiyasi mamlakatning umumiy iqtisodiy faolligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu xarajatlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti iqtisodiyotning turli sohalariga sarmoya kiritish darajasini ko'rsatadi. Masalan, transport va logistika sohasiga yo'naltirilgan sarmoyalar tashqi savdoni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani shakllantirishga xizmat qilmoqda, qishloq xo'jaligiga qaratilgan investitsiyalar esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Shu tariqa, so'nggi besh yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ikki baravarga oshishi mamlakat iqtisodiyotining mustahkam asosga ega ekanligini hamda kelgusi yillarda barqaror o'sish tendensiyasi saqlanib qolishini ko'rsatmoqda. Biroq investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ularni rejali taqsimlash, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashni yanada kuchaytirish zarur (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, trln. so'm¹

So'nggi besh yil ichida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sish sur'atlari iqtisodiyotdagi jarayonlarning dinamikasini yaqqol aks ettirmoqda. Ushbu davrda investitsiya faoliyatining ko'rsatkichlari turli iqtisodiy omillar va sharoitlar ta'sirida o'zgarib bordi.


2020-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etdi. Bu pandemiya ta'siriga qaramay, iqtisodiyotdagi umumiy barqarorlik va investitsiya muhitining yaxshilanishi bilan bog'liq bo'ldi. Shu davrda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat investitsiya dasturlari doirasida yirik infratuzilma loyihalariga qaratilgan sarmoyalar ko'paytirildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



2021-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati biroz pasayib, 97,8 % ni tashkil etdi. Bu pasayish jahon iqtisodiyotidagi notinch vaziyatlar, xususan pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayoni va tashqi savdo hajmining kamayishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ayrim sektorlarda sarmoya jalb qilish jarayoni sekinlashdi, bu esa umumiy ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatdi.

2022-yilda esa asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshgani qayd etildi. O'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil etib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sarmoya faolligining tiklanganini ko'rsatdi. Shu davrda davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida yirik loyihalar amalga oshirildi, shuningdek, xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar o'zining ijobiy natijasini berdi (2-rasm).



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi, % da²

So'nggi yillarda investitsiyalar hajmi yanada oshib, 2023-yilda 174,5 % ga yetdi. Bunday o'sish tendensiyasi mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, sarmoya muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, erkin iqtisodiy zonalarning kengayishi hamda innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning ortishi bilan bog'liqdir. Bu jarayonda transport, energetika va qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning ko'paygani alohida ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining so'nggi besh yildagi dinamikasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga erishish yo'lida ijobiy qadam tashlanganini ko'rsatmoqda. Biroq investitsiyalarning hajmi bilan birga ularning sifatini ham oshirish zarur. Ya'ni, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan loyihalarni afzal ko'rish va sarmoya samaradorligini oshirishga qaratilgan choralarni joriy etish muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar va moliyalashtirish manbalari³

Yillar	Jami investitsiyalar (mlrd so'm)	Respublika byudjeti (%)	Korxona va aholi mablag'i (%)	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar (%)	Suv ta'minoti va kapitalni rivojlantirish jamg'armasi (%)	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (%)	Ijara bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari (%)
2020	35,592.4	4.0	28.4	12.9	40.9	0.3	12.0
2021	50,060.7	3.0	29.4	9.5	46.2	0.6	11.0
2022	56,557.6	6.2	28.6	9.5	44.5	0.4	10.6
2023	56,557.6	6.2	28.6	9.5	44.5	0.4	10.6
2024	107,060.2	1.6	17.6	6.5	68.9	0.2	4.8

2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va ularning moliyalashtirish manbalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu davrda investitsiya faoliyatining dinamikasi iqtisodiy islohotlar, tashqi va ichki omillar bilan belgilanib, korxonalarning investitsion faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

2020-yilda jami investitsiyalar 35 592,4 mlrd so'mni tashkil etib, respublika budjeti hisssasi 4 %, korxona va aholi mablag'lari ulushi esa 28,4 % darajasida bo'ldi. Shu yilda Suv ta'minoti va kapitalni rivojlantirish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



jamg'armasining ulushi 40,9 % ni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlardan biri qayd etildi. Bu davlatning asosiy infratuzilmaviy sohalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya siyosatining muhimligini ko'rsatdi.

2021-yilda jami investitsiyalar 50 060,7 mlrd so'mga yetib, 2020-yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi. Korxona va aholi mablag'lari ulushining 29,4 % ga oshgani ularning moliyaviy faolligi hamda aholi mablag'larining investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki kengayganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 9,5 % ga tushgani tashqi investitsiyalarni jalb qilishdagi ayrim qiyinchiliklarni aks ettirdi.

2022 va 2023-yillarda jami investitsiyalar mos ravishda 56 557,6 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yillarga nisbatan o'sish dinamikasi saqlanib qoldi. Respublika budjeti hissasining 6,2 % ga oshgani davlat tomonidan investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash siyosatining kuchayganini ko'rsatdi. Biroq xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi ushbu davrda o'zgarishsiz 9,5 % darajasida qoldi, bu esa tashqi sarmoyalarni jalb qilish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

2024-yilning birinchi choragida jami investitsiyalar 107 060,2 mlrd so'mga yetib, ulkan o'sish sur'atlari qayd etildi. Suv ta'minoti va kapitalni rivojlantirish jamg'armasining ulushi 68,9 % ni tashkil etdi, bu esa davlat tomonidan infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, korxona va aholi mablag'lari ulushi 17,6 % ga tushgani ichki moliyalashtirish manbalarida qisqarishni anglatdi. Ijara bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari ulushi 4,8 % ni tashkil etib, moliya bozoridagi ayrim cheklovlarni yoki korxonalarning qarz jalb qilish imkoniyatlarining pasayganini ko'rsatdi.

Investitsiya faoliyatining dinamikasi korxonalarning investitsion faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Davlat budjeti hissasining oshishi korxonalar uchun yangi infratuzilma va sharoitlar yaratishda yordam berdi. Biroq xorijiy sarmoyalar ulushining pastligi va ichki moliyalashtirish manbalaridagi qisqarish korxonalarning investitsion faoliyatini cheklagan bo'lishi mumkin. Shu sababli, korxonalarning investitsion loyihalarini amalga oshirishda tashqi kredit va grantlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Investitsiya faoliyatining o'sishi, ayniqsa infratuzilmaviy sohalarda yuqori samarali natijalarga erishish uchun korxonalarning investitsion imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada rivojlantirish muhimdir. Bu xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, moliya bozorini takomillashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash orqali amalga oshirilishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi dinamikasi, jamiga nisbatan % da⁴

2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida muhim o'zgarishlar kuzatildi. Bu davrda investitsiyalar uch asosiy yo'nalish bo'yicha taqsimlandi: mashina, uskuna va inventarlar, qurilish-montaj ishlari hamda boshqa xarajatlar. Ushbu komponentlarning ulushlari har yili iqtisodiyotdagi tarmoqlar va islohotlarga muvofiq ravishda o'zgarib bordi.

2020-yilda qurilish-montaj ishlari 53,3 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallab, yangi infratuzilmaviy obyektlarni qurish va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiyalarning ustuvorligini aks ettirdi. Mashina, uskuna va inventarlar 37,2 % ni tashkil etib, sanoatni texnik jihatdan qayta qurollantirish hamda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish xarajatlarning ahamiyatli ulushga ega ekanini ko'rsatdi. Boshqa xarajatlar esa 9,5 % darajasida bo'lib, ushbu segmentning cheklanganligini ifodaladi.

2021-yilda qurilish-montaj ishlari ulushi 54,4 % ga oshib, infratuzilmani yanada rivojlantirishga qaratilgan xarajatlarning ortganini ko'rsatdi. Mashina va uskunalariga sarflangan investitsiyalar 36,1 % ga tushdi, bu esa

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



texnik yangilanish jarayonidagi ayrim sekinlashuvlarni ifodalashi mumkin. Boshqa xarajatlar o'zgarishsiz qolib, 9,5 % ni tashkil etdi.

2022-yilda qurilish-montaj ishlari ulushi 45,7 % ga kamaydi, biroq mashina, uskuna va inventarlarga qaratilgan xarajatlar 43,9 % ga oshdi. Bu sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarida texnik qayta qurollantirish hamda modernizatsiya jarayonlari jadallashganini ko'rsatdi. Boshqa xarajatlar esa sezilarli darajada o'zgarishsiz qoldi.

2023-yilda qurilish-montaj ishlari ulushi 45,0 % ni tashkil etib, 2022-yilga yaqin darajada bo'ldi. Mashina va uskunalariga yo'naltirilgan investitsiyalar 45,0 % darajasida saqlanib, texnik modernizatsiyaga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatdi. Boshqa xarajatlar esa 8,7 % ga tushib, segment hajmining qisqarganini ifodaladi.

2024-yilning birinchi choragida qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar 50,9 % ni tashkil etdi. Bu infratuzilmani rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayganini ko'rsatdi. Mashina va uskunalariga sarflangan investitsiyalar 39,9 % ga tushib, texnik qayta qurollantirish jarayonining sekinlashuvini ifodaladi. Boshqa xarajatlar esa 9,2 % ga oshdi.

Mazkur dinamika korxonalarning investitsion faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qurilish-montaj ishlarining yuqori ulushi yangi obyektlarni yaratish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilganini bildiradi. Texnika va uskunalariga yo'naltirilgan sarmoyalarning turli davrlarda oshishi yoki kamayishi esa sanoatning texnik yangilanishiga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligini ko'rsatdi. Boshqa xarajatlarning past ulushi qo'shimcha xizmatlar va xarajatlar ko'lamining cheklanganligini anglatadi. Shu bois sanoatning barqaror rivojlanishi uchun texnik modernizatsiya va qurilish-montaj ishlariga qaratilgan sarmoyalar muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi besh yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy samarasini ko'rsatmoqda. Xususan, transport, energetika va qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlarga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishi hamda barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalarning texnologik tarkibidagi o'zgarishlar sanoatni texnik yangilashga bo'lgan ehtiyoj va infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Moliyalashtirish manbalaridagi dinamika esa mamlakatda tashqi va ichki sarmoyalar mutanosibligini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda.

Kelgusida investitsiya samaradorligini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, sarmoyalarni strategik tarmoqlarga maqsadli taqsimlash hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni ustuvor ravishda moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Calderón, C., & Servén, L. (2010). Infrastructure and Economic Development in Sub-Saharan Africa. *Journal of African Economies*, 19(suppl_1), i13–i87. <https://doi.org/10.1093/jae/ejp022>
2. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. (1998). Law and finance. *Journal of Political Economy*, 106(6), 1113–1155. <https://doi.org/10.1086/250042>
3. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice* (5th ed.). McGraw-Hill.
4. Rodrik, D. (2007). *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. Princeton University Press.
5. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2015). *Economic Development* (12th ed.). Pearson Education.
6. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2024). *Statistical Yearbook of Uzbekistan 2020–2024*. Retrieved from <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>